Geografiya darslarning nazariy asosi o‘quvchilarga yer shari tabiati va aholisining xo‘jalik faoliyati haqidagi tasvir yaratib berishga qaratilgan bo‘lsa, uning ikkinchi yana bir kurrasi o‘quvchilarga sehrga to‘la saxiy, mo‘jizakor hamda maftunkor ona zaminimiz tabiati ijodidan shodlanib, ruhlanish ilhom olish zavqlarni tuyishga undovchi ekologik-estetik tarbiya berish nizomlariga asoslanadi. Biz bu tarbiyani o‘quvchilarni murg‘ak, pok borliqqa shaydo qalblariga geografiya darslariga ilk bor kirib kelgan kunimizdanoq singdirib olishni maqsad qilib olsak o‘z vazifamizni a‘lo darajada uddalay olgan bo‘lamiz. qo‘yidagi «tabiatdan yaralgansan» deb ataluvchi shoir o‘g‘itlari bilan sug‘orilgan satrlar bizga yuqoridagi ezgu istaklarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Tabiatdan yaralgansan.
Go‘zal diyor, moviy osmon,
Suv xo‘p zilol, tanga darmon,
Desalar hech qosh chimirma,
Tabiatdan yaralgansan.
Sochingni shamol o‘ynasa,
Xazon kabi undan qochma,
Boshing silab yomg‘ir yog‘sa,
Labing burib pana topma.
Oftob o‘tib qizdirsa bosh,
Yuz o‘girma ayla bardosh,
qalbingdagi qora otash,
tabiatdan yaralgansan.

Tabiatning ajib siri,
Mana shunday tuzilgandir,
Tovus kabi go‘zalliging,
Tabiatdan yaralgandir.

Tabiiy geografiya darslari «geografiya nimani o‘rganadi» degan mavzu bilan boshlanadi. Bu mavzuni o‘qitishda geografiya fani tarixiga nazar tashlash va uni o‘rganish tadqiq etish, xo‘jalikda foydalanish borasida katta ahamiyatli ekanligini batafsil tushintiriladi. Mavzu mavzuni chuqur anglash uchun ko‘plab atamalar bilan ishlarga turi keladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan bayon qilib berilgan, quyidagi she`rni ijro etib berish uchun tayyorlab quyilgan o‘quvchiga navbat beriladi. She`r ijro etilayotgan paytda o‘quvchi oldida geografiya kitobining kattalashtirilgan nusxasi turadi.

Geografiya so‘zi.
qadimda Eratosfen,
Atagan fan o‘sha men,
Yunoncha so‘z geo-yer,
Grafo-chi yozaman der.
O‘zbekcha o‘girsak,
Yerning tasviri demak,
Buni barcha o‘quvchi,
Albat bilmog`i kerak.

Ikki jonim bor mening,
Yer shari shonim mening,
Tabiatdir vujudim,
Sizlar mening bor budim.

Bir tarmog`im tabiat,
Shaydosi bo‘lsa agar.
Ikkinchi bilim, qoida,
Jam xo‘jalik faoliyat.

Bu she`r o‘quvchilarga eshittirilib bo‘lingach ulardan she`rni tahlil qilib berish so‘raladi va dars mustahkamlanadi. She`rni mazmunini namuna sifatida yoritib beriladi.

Yuqoridagi she`r orqali o‘quvchi avvalo geografiya faniga va atamasiga kim asos solganini geografiya so‘zini lug`aviy ma`nosi qanday ekanligini uning ikki qismdan

iboratligi va bu qismlar o'z o'rganish obyektiga ega ekanligi bilan chuqur tanishib oladi. O'z o'rnida Eratosfen haqida gap borilayotganda uni nafaqat fanni birinchi nomlanganligi balki xaritaning birinchi bor tuzishga harakat qilganligi haqida bir qator olamshumul geografik tadqiqotlarga to'xtab o'tish o'rinlidir. Masalan: Eratosfenning fan nomlashga asos bo'lgan tadqiqoti quydagicha edi. Geografiya deb sarlavha boshlagan eng birinchi kitobni bundan 2000 yildan ham ilgariroq Aleksandriyalik olim Eratosfen yozgan edi. Eratosfen tomonidan yozilgan geografiya kitobida yerning shakli va kattaligi o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan dengizlar, quruqliklarning taqsimlanishi haqida fikrlar yuritilib to'liq tasvirlab berilgan. Shundan beri yani Eratosfen kitobi yozilgandan boshlab butun yer yuzasi yoki yer yuzasining biror qismini tasvirlashni geografiya deb aytadigan bo'ldilar [19].

She'r o'qib berilgach, uni tahlil qilib so'ralib, qisqacha konspekt yozdirib qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yer haqidagi geografik bilimlarning rivojlanishi bu mavzuni yoritishda «Buyuk geograflarmiz» nomli she'ridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu she'rdan imkoningiz bo'lsa har bir sayyoh portretiga qarab she'r o'qing, chunki bu holat darsga jonlilik baxsh etadi.

Dars oxirida uning yodlash uchun uyga topshiring.

Buyuk geograflarmiz

Dunyo xaritasini

Birinchi bor tuzgan kim?

So'rsalar o'sha men,

Nomimdur Eratosfen.

Globusni birinchi

Yaratdik biz ikkovlon

Menman nemis Bexaym

Beruniy o'zbek o'g'lon.

Dunyo bo'ylab eng avval,

Sayyoh u kim bo'lgan ekan?

Savolingiz etay hal,

Uning nomi Magellan.

Sandiq to'la javohir izlab

Hindistonni borardim ko'zlab,

Hayolimni ummon oldimi?

Dilga Amir qoni soldimi?

Orol tomon yuzlanib nogoh,
Xindu dedim aholisin goh,
Sharqiy Hitndiston deb atadim,
Men sayyohlik burchini o‘tadim,
Kolomb nomim mamlakat oldi,
Xatolarim tarixda qoldi.

Shuni ham takidlash lozimki, garchan Amerika qita`cini 15-asrning oxirlarida ispan dengizchisi X. Kolomb o‘z sayohatlari natijasida tadqiq etgan bo‘lsada, undan necha yuz yillar avval vatandoshimiz A. Beruniy o‘z asrlarida yer qirrasining orqa tomonida ham quruqlik mavjud ekanini bashorat qilib o‘tganligi ham o‘z davrning muhim geografiya voqeasi edi. Shu bois yuqoridagi X.Kolomb sayohatlariga bag`ishlov o‘qib berilagach, atoqli shoirimiz A.Oripovning quyidagi misralari bilan hamnafas bo‘lishimiz, fikrlar uzviyligini ta`minlaydi, aniqligini oshiradi.

Amerika sehrli diyor,
Uxlar edi Kolomb ham hali
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash`ali
Kolombda bor alamim mani,
O‘zbekiston vatanim manim.

Darvoqe sizga yuqoridagi tavsiya etgan bitiklarning ikkinchi bandida yerning shakliy modeli globusni yaratgan olimlar A.R.Beruniy hamda M. Behaymlar haqida fikr ilgari surilgan edi. Shu o‘rinda shuni ta`qidlash joizki, o‘quvchilar globusni qaysi ixtirochi dastlab yaratgani haqida o‘ylab ikkilanadilar. Buni bir necha yillik tajribalar tasdiqlanmoqda. Shu bois ham har ikki olimning yashagan davrlari va ixtiro etgan globuslarning aniq tafsilotlari keltirib o‘tilishi fikrlarni yanada oydinlashtiriladi.

X.Kolomb sayohatidan keltirilgan band tahlil qilinayotganda esa dunyo siyosiy xaritasidan Kolumbiya mamlakatini ko‘rsatib o‘tishni unitmang.

UDK. 691.1

**O'ZBEK XALQ ARXITEKTURASINING BOSH MAKTABINI PAYDO
BO'LISHI**

N.Z.Muminova, Farg'ona politexnika Instituti tayanch doktoranti

muminova1706@gmail.com,

10-23 Arx. gurux talabasi I.Jo'raboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy arxitektura yodgorliklari bezaklarini ta'mirlashdagi qurilish ashyolarining turlari hamda qay tarzda ta'mirlash masalalari, Farg'ona xalq me'morchiligidagi ustunlari borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xarsangtoshlar, paxsalar lentasimon, injenerlik kommunikatsiyalari, koshinburush san'ati, material bo'laklar

Kirish. Milliy merosning rivojlanishi, odatda, o'zining boy o'tmishiga ega bo'lgan tarixiy uslublardan birining rivojlanishi sifatida qaraladi. Turkiston me'morchiligi rivojlanishining dastlabki bosqichi tonozli-ark tektonikasida keltirilgan diniy me'morchilik shakllaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. O'zbekiston mustaqillikdan keyin dunyo miqyosida olis o'tmish bag'ridan bugungi kungacha yetib kelgan tarixiy boyliklari madaniy meros ob'yektlariga boy mamlakatlardan biriga aylandi.

Arxitektura masjidlar, maktablar, madrasalar an'anaviy, ammo binolar ichidagi bezaklar o'ziga xosligicha qoldi. Fuqarolik va xalq uy-joy me'morchiligida alohida ajralib turardi bir qancha mahalliy maktablar - Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva - mahalliy hisobga olingan holda o'ziga xos xususiyatlari bilan an'analar va iqlim sharoitlari. Farg'ona vodiysi tarixida Turkiston durdonasi sifatida shuxrat topgan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

go'zal o'lka bo'lib, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari joylashgan ko'rkam vodiyning nomidir.[1] G'arbdan Sharqqa qariyb 300 kilometr ga cho'zilgan, kengligi 150 kvadrat kilometr maydonda yasalgan. Farg'ona vodiysi shimol, shimoli-shaqrda Qurama va Chotqol, shaqrda Farg'ona xamda janubdan Oloy tog' tizimlari bilan o'ralgan. Bu tog'lar oralig'i bo'ylab Norin va Qoradaryolarini qo'shilishidan xosil bo'lgan dunyodagi eng uzun daryolardan biri (2220 km) sersuv Sirdaryo- tarixiy Sayxun daryosi oqib o'tadi.

Janub va shimol tomonidan tog'lar bilan o'ralgan Farg'ona vodiysi g'arb tomonidan Markaziy Osiyo tekisliklari bilan sharqdan esa, Qoshg'ar bilan yensiz Terak Dovoni, ya'niy tog' oralig'i yo'llari orqali tutashgan. O'zbekiston arxitekturasini, jumladan, Farg'ona arxitekturasini o'rganish tarixida bir qator olimlar ish olib borganlar. Jumladan, V. L. Voronina, A. K. Pisarchik va I. Azimovlar o'z tadqiqotlarida Farg'ona tarixiy merosini, milliy an'anlari, arxitekturaviy uslublari yodgorliklar va tarixiy obidalar xaqida ma'lumotlar berilgan.[2] Farg'ona vodiysida bir yoki ikkita qo'shma yashash xonalarning joylashuvi uy-joy qurilishida yetakchi tipologik belgi sifatida aloxida ajralib turadi. Farg'ona tipidagi uylarning odatdagi rejasi-yopiq, kontur bo'yicha xonalarning joylashuvi yoki xovlining devor bilan o'rab olishidan, ikkita yashash xonasidan tashkil topgan bir yoki ikkita asosiy yashash sektsiyasidan iborat bo'lib, ular orasida, ya'niy markazda kishi qoshg'archa ayvon joylashadi. Xovli perimetri bo'ylab ketma-ket va yonma-yon aloxida yashash xonalari, ochiq ayvon va yordamchi xo'jalik xonalari quriladi.[3]

Xulosa. Shunday qilib, quyidagi eng asosiy xarakterli elementlar: tashqi devordagi panjarali tuynuklar, yopiq xovlilar, ma'lum tipdagi qoshg'archa pechkalar, uying fasad qismini galereyali qilib rejalashtirilishi va qurilishi, ikkala tomondagi yarim ochiq xonalar (ayvon) ning simmetrik joylashtirilishi, yengil harakatlanuvchi devorsimon

qoplamalar, janubiy orientatsiyasi esa, Xitoy arxitekturasi uslubiga monandligi kabi belgilari orqali Farg’ona arxitektura maktabining o’ziga xos jixatlari haqida keng va tushunarli ma’lumotlarga ega bo’lamiz. Demak, Xorazm, Buxoro va Farg’onaning siyosiy jixatdan aloxidaligi o’zbek xalq arxitekturasi uchta bosh maktabining paydo bo’lishi xamda rivojlanishiga sabab bo’ldi.

Adabiyotlar :

1. Zohidovna, M. N. (2021). The Basic Principles of the use of Building Materials in the Repair of Decorations of Architectural Monuments of Uzbekistan. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 2(12), 19-23.

2. Adabiyotga 5. Muminova, N. Z., Toshmatov, U. T., & Norimova, S. A. (2020). In Uzbekistan roof landscaping-the need for environmental health, convenience, beauty. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 213-215.

3. Salimov, A., Xotamov, A., Juraboyev, A., & Muminova, N. (2023). Architectural planning solutions of recreational facilities in mountainous areas. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 06028). EDP Sciences.

4. Н.З. Муминова. (2022). История И Карта Древнего Парканское (Даванское) Государства Ферганское Долины. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 129–132. Retrieved from <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/279>

5. Muminova, N. Z. (2024). THE FORMATION OF THE CITY OF MARGILAN (OLD MARGILAN) IN THE HISTORY OF ARCHITECTURE.

Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 676–680.

Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/6178>

6. Muminova, N. Z. (2024). DEVELOPMENT OF HISTORICAL FERGANA CITY CENTERS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL),

690–694. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/6180>

7. Muminova, N. Z. (2024). THE ROLE OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM IN THE FORMATION OF HISTORICAL CITIES OF THE FERGHANA REGION. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 63–66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11095095>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 6. June 2024



Innovation House

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 6. June 2024



**Research Science and
Innovation House**

UDK. 691.1

**TARIXIY SHAHARLARNIG SHAKLLANISHIDA ARXEOLOGIK
TURIZM. (FARG`ONA VILOYATI MISOLIDA)**

N.Muminova, Farg`ona politexnika Instituti tayanch doktoranti

muminova1706@gmail.com

Abstract. This article discusses the role, problems and proposals for the development of archeological tourism in the formation and development of historical cities in Fergana region.

Keywords: Monument, archeological, territories, resource, stratum.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роли, проблемы и предложения по развитию археологического туризма в формировании и развитии исторических городов Ферганской области.

Ключевые слова: Памятник, археологический, территории, ресурсы, пласт.

Annotatsiya. Bu maqolada Farg`ona viloyatida tarixiy Shaharlarnig hsakllanishi va rivojlanish taraqqiyotida arxeologik turizmni rivojlantirish o`rni, muammo va takliflari ko`rib chiqiladi.

Kalit so`zlar: Yodgorlik, arxeologik, xududlar, resuros, qatlam.

Xozirgi kunga kelganda turli davlatlarda arxeologik turizmga qarashlar turlicha shakllangan. Bu o`z navbatida davlatlarning siyosiy jixatdan barqarorligiga va o`z navbatida iqtisodiy imkoniyatlarining yuqoriligi bilan ham bog`liq albatta.

Fargona shaxri Uzbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan shaharlardan biri. U Farg'ona arxitekturasi oldingi davrlardan hozirgacha kelgan, ushbu shaharning tarixiy va madaniyatiy barcha me'oriylariga asoslanadi.

Fargona shahrida ajoyib arxitekturli manzaralar, tarixiy quvvatli hamkorliklar va madaniyatiy me'oriylarni ko'rsatish uchun mahalliy ayrim muzeylar va madaniyat markazlari mavjud. Bundan tashqari, ushbu shahrning markaziy ko'chalari, bozorlar, madaniyati sohalar va ijtimoiy-iqtisodiy joylar mamlakat bo'ylab taniqli mavjudligini ko'rsatish mumkin. Farg`ona viloyatda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

aniqlangan yodgorliklar tahlil qilinganda, ularning 30 % i 1980-yillarda to'liq buzilganligi, 20 % i kuchli buzilganligi hamda 5 % i qisman buzilganligi aniqlandi. Ayni vaqtda arxeologik yodgorliklarning 30 % dan ortig'i qabriston sifatida foydalanilmoqda. Bu holat esa yodgorliklar yuqori qismi madaniy qatlamlarining butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Yodgorliklarning asosiy qismi (84%) asosan manzilgohlar, shaharlar, qadimgi qabrlar va turli ko'rinishdagi xo'jalik binolari hisoblanadi.

Xar bir arxeologik yodgorliklarda arxeologik yodgorlik va u joylashgan xudud tabiati, asori atiqalar aks ettirilgan maxsus fotosuratlar va tasviriy san'at asarlarini ko'rgazmalari tashkillansa ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ma'lum amaliy va ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida Farg'ona viloyatiga muntazam xorijlik turistlar tashrifini ta'minlash maqsadida turli xalqaro va mintaqaviy konferentsiya va simfozium, festivallarni tashkillash zarur. Bugungi kunda mavjud arxeologik yodgorliklarni o'rganish maqsadida xorijiy sarmoyalar va grant dasturlarni amalga oshirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Bu o'z navbatida arxeologik yodgorliklarni tiklash va asrab qolishni tizimli faoliyatini yo'lga qo'yishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2013-yilda O'zR FA Arxeologiya instituti hodimlari tomonidan Farg'ona viloyatining arxeologik xaritasini yaratish maqsadida arxeologik kuzatuv ishlarini amalga oshiradi. Tadqiqot davomida viloyat arxeologik yodgorliklariga oid ilmiy ishlar, arxiv ma'lumotlari hamda bevosita kuzatuv ishlari natijasida 177 ta arxeologik yodgorliklar qayd etiladi. shundan bevosita 153 ta yodgorlik 1979-yildagi N.Gorbunovning xaritasida qayd etilgan bo'lsa, qolgan 20 dan ziyod yodgorlik keyingi yillarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlangan. Jumladan, Farg'ona o'lkashunoslik muzeyi ilmiy hodimi G.Ivanov tomonidan Ko'ktosh qabrlari, Galasak, Mo'yi muborak yodgorliklari, O'zR FA Arxeologiya instituti ilmiy hodimlari tomonidan Mashadtepa, Surxtepa, Qizlarmozor, Tepaqo'rg'on kabi yodgorliklar o'rganilgan va ro'yhatga olingan. Qo'qon shahrida joylashgan Tepaqo'rg'on yodgorligi 2008 yilda A.A. Anarbayev rahbarligidagi Qo'qon otryadi tomonidan aniqlangan. 2011-yilda bu yerda keng ko'lamlil arxeologik qazishmalar amalga oshirildi. Natijada, bu yerda miloddan avvalgi birinchi va milodiy asr boshlarida urbanizatsiyalashgan qarorgoh shakllanganligi va arablar bosqiniga qadar faoliyat ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi.

Arxeologik yodgorliklar o`z navbatida o`tmish bilan bugungi kunni bog`lovchi ko`prik xisoblanadi. SHu bilan bir qatorda qadim o`tmishning tilsiz guvosi ekanligini ham unutmasligimiz zarur. Bugungi kunda qishloq va kichik shaxarchalarda turizmni rivojlantirishda arxeologik yodgorliklarni o`rni beqiyos xisoblanadi. Bu xududlardagi arxeologik yodgorliklarni tiklash rekonstruktsiya qilish orqali maxalliy axolining g`urur va iftixorini oshirish imkoni paydo bo`ladi.

Xulosa. Mamlakatimizda turizm rivojlanishi jamiyatning yangilanish davriga to`g`ri kelib, u asta-sekinlik bilan sodir bo`layotgan o`zgarishlar jarayonini hisobga olgan holda, uning sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan. O`zbekiston sharoitida turizmni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish uchun yetarlicha turistik resurs imkoniyatlari mavjuddir.

Turistik resurslardan samarali foydalaniSH imkoniyatlarini tadqiq etishda, ulardan foydalanishning samaradorligini oshirish yo`llari, ularga ta`sir etuvchi omillar va ularni aniqlash, hamda turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash, iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatdan o`rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Farg`ona viloyatida turizm resurslari salohiyatini yuqoriligi, ya`ni bu yerda madaniy – tarixiy yodgorliklarning mavjudligi, boy tarixiy merosi, diniy, ekologik, ilmiy, hamda o`ziga xos an`analari va boshqa xislatlari turizmni rivojlanishini zamon talablari asosida yo`lga qo`yishni taqozo etadi. Ayniqsa turistik resurslar salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiy jarayonning faol kechishiga sababchi bo`lib, uning imkoniyatlari respublikamiz olimlari tomonidan yetarli darajada o`rganilmagan. SHunga ko`ra, respublikamizda ushbu mavzuda ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borish, uning ko`plab nazariy va amaliy masalalari bo`yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi lozimdir.

2. Turistik resurslar muhim ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lib, ayniqsa ulardan samarali foydalanish mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bu ijobiy xususiyatlar quyidagilar orqali asoslanib berildi:

- iSH o`rinlarining yaralishi;
- daromadning ko`payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tezlashishi;
- mahalliy madaniyat o`choqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an`analari, udumlarining rivojlanishi;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

- qishloq xo`jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabning oshishi;
- mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- tabiiy komplekslarning kengayishi;
- mintaqa jozibadorligining oshishi;
- mahalliy madaniy hayotning jonlanishi va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. Zohidovna, M. N. (2021). The Basic Principles of the use of Building Materials in the Repair of Decorations of Architectural Monuments of Uzbekistan. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 2(12), 19-23.
2. Adabiyotga 5. Muminova, N. Z., Toshmatov, U. T., & Norimova, S. A. (2020). In Uzbekistan roof landscaping-the need for environmental health, convenience, beauty. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 213-215.
3. Salimov, A., Xotamov, A., Juraboyev, A., & Muminova, N. (2023). Architectural planning solutions of recreational facilities in mountainous areas. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 06028). EDP Sciences.
4. Н.З. Муминова. (2022). История И Карта Древнего Парканское (Даванское) Государства Ферганское Долины. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 129–132. Retrieved from <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/279>
5. Muminova, N. Z. (2024). THE FORMATION OF THE CITY OF MARGILAN (OLD MARGILAN) IN THE HISTORY OF ARCHITECTURE. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 676–680. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/6178>
6. Muminova, N. Z. (2024). DEVELOPMENT OF HISTORICAL FERGANA CITY CENTERS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 690–694. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/6180>
7. Muminova, N. Z. (2024). THE ROLE OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM IN THE FORMATION OF HISTORICAL CITIES OF THE FERGHANA REGION. Educational Research in Universal Sciences, 3(5), 63–66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11095095>

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILIDA ARABIY VA FORSIY OMONIM O‘ZLASHMALAR

UrDU o‘qituvchisi

X.Bobojonova

Eski o‘zbek adabiy tilida fors va arab tilidan o‘zlashgan leksik omonimlar o‘zbek tilidagi leksik omonimiya orasida katta o‘rin tutadi. Badiiy asarning poetik talabiga ko‘ra ijodkor arab va fors tilidagi omonimlarga ko‘p murojaat qilishi, o‘z asarida ularning semantik va, albatta, poetik imkoniyatlaridan foydalanishiga to‘g‘ri kelgan. Bu ayniqsa, tajnis va uning turlarini yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etgani barchamizga ayon. Quyida eski o‘zbek adabiy tilidagi ana shunday bir necha omonim o‘zlashmalarning adabiy asardagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

Girih omonim o‘zlashmasi. Yuqoridagi tasnifning ikkinchi turiga mansub bo‘lgan lug‘aviy shakldosh so‘zlar bo‘lib, talaffuzi va imlosi bir xil, leksik va grammatik ma’nolari turlicha bo‘lgan forsiy o‘zlashmadir. Ushbu omonimik juftlikning ikki ma’nosi mavjud:

1) گره – tugun, muammo, bog‘lam, bog‘langan joy. Alisher Navoiy asarlarida ushbu so‘z bir necha ma’nolarda qo‘llangan:

a) tugun, chigil:

Demasmenkim, kesib o‘qi zirihni,

Taxayyul toridi ochib girihni¹.

b) egrilik, qing‘irlik:

Agarchi yova girih bo‘lsa, o‘qi tuz chiqmas,

¹Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Том VIII. – Тошкент. Фан. 1991. –Б. 60.

Qoshi girih bila zulm o‘qin etmadi taqsir².

- c) mushkullik, qiyinchilik:

*Ko‘pgirih tushti Navoiy ishiga,
Sen kushode ber anga, yo Fattoh³.*

- d) o‘rim, soch o‘rimi:

*Girih-girih chu tugarsen etar oyog‘ingg‘a soch,
Girihlarin chu ocharsen tushar quloch-quloch⁴.*

Bundan tashqari ushbu so‘z Navoiy asarlarida *girih urmoq – bog‘lamoq, tugmoq, girih solmoq – qoshni chimirmoq* kabi qo‘shma fe‘llar, *girihsir – tugunli, jingalak* kabi sodda yasama sifatlarning yasalishida ishtirok etgan⁵.

Ko‘rinib turganidek, Navoiy asarlarida uchraydigan *girih* bir so‘zning turli ma‘nolari. Eski o‘zbek adabiy tilida biz ushbu so‘zni nafaqat yuqoridagi ma‘nolarda, balki ayni asosdan paydo bo‘lgan *murakkab naqsh* ma‘nosida qo‘llanganini ham kuzatamiz. Asli ushbu so‘zning asosi ham aynan *tugun* ma‘nosidagi *girihsir*dir. Chunki dastlab burama, murakkab tugunlarga ega naqshlar *girih* yoki *gireh* deyilgan. Keyinchalik bu bog‘liqlik yo‘qolgan.

Chunonchi, quyidagi misollarga e‘tibor beraylik:

*Ta‘bi daqoyiqda girihlar ochib,
Nutqi haqoyiqda guharlar sochib (JVS, 12).*

Ushbu satrlarda ijodkor *girih* so‘zini *tugun, chigallik* ma‘nosida qo‘llamoqda va so‘zni *tavzi‘, tazod, tarse‘* kabi san‘atlarni yuzaga keltirishga xizmat qildirmoqda.

*Vale suvda mavji girehgirlar,
Solib sarv oyoqig‘a zanjirlar (FI, 105).*

²Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Том III. – Тошкент. Фан. 1988. –Б. 132.

³Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Том V. – Тошкент. Фан. 1990. –Б. 80.

⁴Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Том IV. – Тошкент. Фан. 1989. –Б. 73.

⁵Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент. Фан. 1983. – Б. 405.

Ushbu misralarda shoir soʻzning *naqsh, naqshinkor* maʼnosidan istifoda etib, tashbeh, tashxis, tavziʼ, tanosub kabi sanʼatlarni yuzaga keltirmoqda.

Eski oʻzbek adabiy tili davriga oid sheʼriy parchalarning oʻzidayoq ushbu soʻzni bir necha maʼnolarda kelgani oʻquvchini hayratga soladi. Chunonchi:

Otib oʻqchilar qoshgʻa solmay gireh,

Chiqib goʻshayi yodin ovozi zeh (FI, 442).

Ushbu oʻrinda shoir oʻzlashmani *egrilik* maʼnosida qoʻllab, tanosub, tashxis, tashbeh sanʼatlarini baytda yuzaga keltirmoqda.

Shanba kuni choshtgohdin soʻng falaki nilchehr sard mehrlik ogʻoz qilib, havo mavji burudat shiddatidin guhar suyidek girihband boʻldi (FI, 613) satrlarida ijodkor nasrda nazm goʻzalligini namoyish etmoqdaki, bunda *girihband* dumaloq, tugunchak maʼnolarida qoʻllanib, tashbehning goʻzal namunasini yuzaga keltirmoqda.

Burj omonim oʻzlashmasi. *Chun hazrati zillullohiy xurshidi duraxshon bila mohi tobon bir burjdin jilvagar boʻlgʻondek va yo laʼli rangin bila guhari samin bir durjni maqar qilgʻondek* (ZT, 394^a). Ushbu misolda qoʻllangan *burj* soʻzi astronomik atama sifatida qoʻllangan. *El-u urugʻimiz bila qalʼadin chiqib, mahkam xandaq qozib, burj-u borular bino qilib, ahl-u ayolimiz bila kirib oʻlturgʻumuzdur* (JVS, 91). Keltirilgan bu misolda esa *burj* meʼmorchilikka oid atama sifatida qoʻllanmoqda. SHuningdek, eski oʻzbek adabiy tili davriga oid adabiy manbalarda *Chilburj* toponimi uchraydiki, undagi komponent sifatida qoʻllanayotgan *burj* ham meʼmorchilikka oidligi sezilib turibdi. Avvalgi misolda *burj* tanosub, tashbeh kabi sanʼatlarga hamda musajjaʼ usuliga xizmat qildirilmoqda. Ikkinchi misolda tanosub, taʼdid, tavziʼ sanʼatlari yuzaga chiqishiga xizmat qilmoqda. Har ikki *burj* soʻzi ham arab tili orqali oʻzlashgan oʻzlashma boʻlib, muarrablardan biri hisoblanadi. Soʻzning dastlabki maʼnosi shaharsozlik (meʼmorchilik)da keng qoʻllanadigan qalʼa devoriga tutashtirib, unga

tirgak sifatida tashqi tomonidan minora shaklida qurilgan qo‘shimcha binoni anglatadi⁶. Ikkinchi quyoshning yillik ko‘rinma harakati doirasidagi o‘n ikkita yulduzlar turkumi yoki ularning har biri ma‘nosi aslida dastlabki ma‘nodan o‘sib chiqqan va keyinchalik oradagi bog‘liqlik yo‘qolgan. Bu haqda Sijjistoniy alohida ham to‘xtalib o‘tgan. Uning ta‘kidicha, Qur‘oni Karimda to‘rt o‘rinda qo‘llangan *buruj* burjning siniq ko‘pligi bo‘lib, janubiy arab shevalariga suryoniyan o‘zlashgan⁷. A. Jeffery ushbu so‘zning genezisini Oromiy shevalari bilan bog‘laydi⁸. SHaharsozlikda qo‘llanuvchi *burj* atamasi tarqalish areali keng bo‘lib, yunon tilida *πύργος* (*pyrgos*⁹) – *tog‘, qal‘a*, lotin tilida *burgus* tarzida qo‘llangan va *qal‘a* yoki *qal‘a, shahar devori* ma‘nosini anglatgan. Suryoniyga o‘zlashgandagina u astronomik ma‘no kasb qilgan. Bu biz bilgan *Hamburg, Wolfsburg, Nürnberg, Frankfurt, Peterburg* kabi shahar nomlaridagi *burg, berg, furt* kabi, Xorazm toponimlaridagi *fil, bil, fir, pir, bur*¹⁰ (*Alfir, Ardabil, Pir kabi*) komponentlar bilan bog‘liq tarzda paydo bo‘lgani shubhasiz. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ushbu omonim polisemiya asosida hosil bo‘lgan.

Shayx omonim o‘zlashmasi. Eski o‘zbek adabiy tili davri adabiy manbalarida keng qo‘llanuvchi ushbu omonim o‘zlashma ham polisemiya o‘rtasida ma‘no uzilishi natijasida paydo bo‘lgan. Misol tariqasida quyidagi ikki jumlaning tahlil qilishimiz mumkin: *Marv sarhadidin to Oxalg‘acha qaysi erda arbobi mol bo‘lsa va shayxu shobdin mol naqdida sohibi nisob topilsa...* (RD, 263^b). Ushbu o‘rinda qo‘llangan *shayx* o‘zlashmasi diniy-siyosiy atama sifatida diniy-huquqiy fatvo chiqaruvchi amaldor ma‘nosini anglatadi, *Zubdatu-l-avliyo shayx Najmiddin Kubro quddisa sirruhu-l-*

⁶Ўзбек тилининг изохли луғати. I том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. –Б. 378.

⁷As-Sijjistānī. Nuzhat al-Qulūb fī Gharīb al-Qur‘ān. Cairo, 1924. –P. 63.

⁸Jeffery A. The foreign vocabulary of the Qur‘an. Leiden-Boston. 2007. –P. 78-79.

⁹شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دكتور محمد معين. تهران. امير كبير. ۱۳۸۶. در جلد اول ص. ۲۵۰.

¹⁰Дўсимов З. Хоразм топонимияси ва «Авесто» // «Авесто» – буюк қомусий асар. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 13-16., Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б., Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – 88 б., Дўсимов З., Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва «Авесто» . – Тошкент: Фан, 2010. –112 б., Юлдашев Д. Жанубий Қорақолпоқистон топонимларининг тарихий-этимологик таснифи. Филол. фан. ном. дис. –Нукус. 2011. –Б. 82.

azizning muborak maqbarasi javorig‘a tushub lashkargoh qildilar (GD, 187^b) satrlaridagi omonim o‘zlashma esa tasavvuf tariqati shayxi ma’nosini ifodalaydi. Aslida omonim birliklarning ikkinchisi avvalgisi asosida paydo bo‘lgani shubhasiz. Chunki tasavvufiy terminlarning katta qismi diniy terminlar asosida yuzaga kelgan.

Hur shakldosh o‘zlashmasi. Ushbu omonim o‘zlashma M.Rustamiy ta’kidlagan IV tur – talaffuzi bir xil bo‘lib, yozilishi, leksik va grammatik ma’nolari turlicha bo‘lgan so‘zlar¹¹ga mansub. Chunki arab tili va eski o‘zbek yozuvida shaxlo ko‘z ma’nosidagi hur حور shaklida, ozod ma’nosidagi hur esa حر tarzida ifoda etiladi

Har sori anda hur kibi jilva qilg‘uchi,

Xo‘blar guruhig‘a ne hisobu ne son erur (ZT, 391^b).

Ushbu misralardagi *hur* so‘zi arab tili orqali kirib kelgan o‘zlashma (muarrab) bo‘lib, asli ma’nosi *shaxlo ko‘z* demakdir. Islomiy atama sifatida turkiy tillarga kirib kelgan ushbu o‘zlashma islom an’anasi va Qur’onga ko‘ra, taqvodorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan, jismoniy va ma’naviy kamchiliklardan xoli bo‘lgan nihoyatda go‘zal qiz(lar) ma’nosida istifoda etiladi. Bundan tashqari o‘zbek tilida bu so‘zni juda chiroyli, go‘zal, nozanin qiz hamda sharm-hayoli, pok ma’nolari ham bor¹². Uning asosi “Avesto”dagi *𐬀𐬀𐬀𐬀𐬀* – *hūraōda*¹³, pahlaviy matnlaridagi, xususan, “Arda Virof”ning 18-bandida va “Hādōxt Nask”ning 23-bandida uchraydigan go‘zal qiz, chiroyli fikrlovchi ma’nosini ifodalovchi *𐬀𐬀𐬀𐬀* – *hurustga* bog‘lanadi. Keyinchalik ushbu so‘z semit tillariga ham o‘zlashgan. Keltirilgan misrada *hur* o‘zlashmasi *tavzi*, *tanosub*, *tashbeh* kabi bir qancha san’atlarni yuzaga chiqishiga asos bo‘lmoqda. Boshqa bir o‘rinda: *Biz hanuzg‘acha banda berib hur sotg‘un olg‘an ermasmiz* (RD, 331^a) misolini uchratamizki, bu satrlarda *hur* o‘zlashmasi ozod, erkin,

¹¹Рустамий М. Луғавий шаклдошлик ва унинг турларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. - №1-2. – Б. 31.

¹²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –Б. 127.

¹³Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979). –P. 1836.

mustaqil; erksevar, asil, toza; birovning izmidan xoli, erki o‘zida bo‘lgan ma’nolarini ifodalamoqda hamda nasrda kontrast (tazod san’ati)ga asos bo‘lmoqda. *Hurriyat – ozodlik* so‘zi ayni asosdan hosil qilingan. Arab tilidagi ushbu o‘zlashmaning negizi ibroniydagi *hor – ozod*, oromiydagi *horin – erkin*, suryoniydagi *her-ā – erkin*, midiya tilidagi *harya – ozod*, *erki bilan tug‘ilgan* so‘zlari bilan bog‘lanadi. Har ikki o‘zlashma ham Qur’oni Karimning bir necha suralarida uchraydi va keltirilgan ma’nolarda istifoda etiladi.

Ado omonim o‘zlashmasi. Arabiy omonim o‘zlashma bo‘lib, talaffuzi bir xil bo‘lib, yozilishi, leksik va grammatik ma’nolari turlicha bo‘lgan omonimlar guruhiga mansub. Chunki tugatmoq ma’nosidagi ado arab tili va eski o‘zbek yozuvida ادا tarzida, noz – karashma ma’nosidagi ado عدا shaklida ifodalangan. *Va ul janob farmoni saodatintisob muqtazosicha mazkur sura tafsirin fasohati tamom va balog‘ati molokalom bila ado qilib...*(GD, 74^b). Ushbu misralarda qo‘llangan *ado* so‘zi *ado – tugatmoq, itmomiga etmoq* ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu satrlarda *tavzi’, tanosub, musajja’* kabi badiiy-tasviriy san’atlar yuzaga kelgan. Boshqa bir o‘rinda: *...bu ilmi sharif qavoidining ta’limig‘a ishtig‘ol ko‘rguzub, husni adoyi maxorijdin tullobni bahramand etgay...*(FI, 602). Ushbu o‘rinda esa *ado – ishva, noz* ma’nolarini ifodalaydi va keltirilgan misralarda tanosub, tazod san’atlarini yuzaga kelishida xizmat qilmoqda. Aslida ushbu ikki omonim ham polisemiya asosida yuzaga kelganligi haqida fikr yuritish mumkin. Chunki *ado* so‘zining *qiynalmoq* ma’nosi ham mavjud. Noz-karashma ma’nosidagi *ado* so‘zida ham ayni *qiynash, qiynalish* holati yo‘q emas.

Shuningdek, ushbu qatorga turkiy *sur* (surmoq fe’lining buyruq mayli shakli) hamda forsiy o‘zlashma *sur* (to‘y, bazm), arabiy o‘zlashma *sur* (karnay, shox, muguz) kiritishimiz mumkin. Albatta, ushbu omonimlik qatoriga shevada qo‘llanadigan yana bir forsiy o‘zlashma *sur* (salobat so‘zining sinonimi) va forsiy *so‘rx – qizil* so‘zining

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 6. June 2024

ayrim o‘zbek shevalaridagi varianti *sur* (qirmizi, qizil, qizg‘ish)ni ham qo‘shish mumkin. Chunonchi, “Zubdatu-t-tavorix”da o‘qiymiz:

Kimki sur ichra qilsa bir ishrat,

Etkurur motam ichra yuz hasrat (ZT, 435^a).

ushbu misralarda *sur* o‘zlashmasi *to‘y, bazm* ma’nosida qo‘llanayotganini sezish qiyin emas hamda o‘zlashmaning *sur – motam* o‘rtasida tazod san’atini, *sur – ishrat, motam – hasrat* o‘rtasida tanosubni yuzaga keltirayotganini kuzatish mumkin.

Yana bir o‘rinda muarrix:

Bo‘lub to‘y uzra to‘y, sur uzra sur,

Sarosar bo‘ldi davron ahli masrur (RD, 253^b).

misrasini keltiradiki, ushbu o‘rinda *urning karnay* ma’nosida qo‘llangani anglashiladi va *to‘y-sur-masrur* o‘rtasida tanosub, *to‘y* va *sur* takrorlanishi asosida takrir san’atlari yuzaga chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, eski o‘zbek adabiy tili adabiy manbalaridagi lug‘aviy shakldosh bo‘lgan o‘zlashmalarning poetik imkoniyatlarini tahlil qilish, ulardagi ma’no nozikliklarini o‘rganish, lug‘aviy shakldoshlik turlarini tasniflash bizga eski o‘zbek adabiy tilidagi omonimiya hodisasini butun bo‘y-basti bilan o‘rganish imkoniyatini beradi. Chunki eski o‘zbek tilidagi omonimiya asl matn bilan bog‘liq holda o‘rganilganida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagiga nisbatan farqli holatlarni yuzaga keltirishi tabiiy. Chunonchi, hozirgi o‘zbek tili va yozuvi nuqtai nazaridan *mulk* va *malak* so‘zlarini hech qanday mezon asosida shakldosh deya olmaymiz. Lekin eski o‘zbek adabiy tiliga oid matnlarda, xususan, eski o‘zbek adabiy tili davriga oid adabiy manbalarda asl matn nuqtai nazaridan ular omonim deb qaraladi. Eski o‘zbek tili matnlaridagi ملك – ملك hozirgi o‘zbek tilidagi soya (ko‘lanka) – soya (o‘simlik) juftligi kabi bir mezonga tushadi (yozilishi bir xil talaffuzi har xil, ilmiy tilda ularga nisbatan *omograf* atamasi qo‘llanadi) va omonimning bir turi bo‘la oladi. Demak, eski o‘zbek

adabiy tili davriga oid adabiy manbalar asosida tahlil qilganimiz lug‘aviy shakldoshlik va uning turlari o‘zbek tilidagi omonimiya hodisasiga oid qonun-qoidalarni to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.As-Sijistānī. Nuzhat al-Qulūb fī Gharīb al-Qur‘ān. Cairo, 1924. –P. 63.
 - 2.Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979). –P. 1836.
 - 3.Jeffery A. The foreign vocabulary of the Qur‘an. Leiden-Boston.2007. –P. 78-79.
 - 4.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I jild. – T. Fan. 1983. – B. 405.
 - 5.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom III.– T. Fan. 1988. –B. 132.
 - 6.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom IV. – T. Fan. 1989. –B. 73.
 - 7.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom V. – T. Fan. 1990. –B. 80.
 - 8.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Tom VIII. – T. Fan. 1991. –B. 60.
 - 9.Do‘simov Z. Xorazm toponimiyasi va «Avesto» . // «Avesto» – buyuk qomusiy asar. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 13-16.
 - 10.Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 104 b.
 - 11.Do‘simov Z., Tillaeva M. Toponimika asoslari. – Toshkent, 2002. –88 b.
 - 12.Do‘simov Z., Tillaeva M. Xorazm onomastikasining shakllanishi va «Avesto» . – Toshkent: Fan, 2010. –112 b.
 - 13.Rustamiy M. Lug‘aviy shakldoshlik va uning turlariga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1994. - №1-2. – B. 31.
 - 14.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. –B. 378.
 - 15.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008. –B. 127.
 - 16Yuldashev D. Janubiy Qoraqolpoqiston toponimlarining tarixiy-etimologik tasnifi. Filol. fan. nom. dis. –Nukus. 2011. –B. 82.
- شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶
در جلد اوّل ص. ۲۵۰.

Suvo`tlar tarqalishi, ekologik guruhlari

**Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo`nalishi talabalari**

**Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi
Naimsherovalar Sevinch Sherzodbek qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada suvo`tlarning ekologik guruhlari, qaysi muhitda o`shishiga qarab qanday turlar tarqalganini haqida ma`lumot keltirilgan. Xususan, plankton, sho`r suv, turli muhitdagi tuproqlar shular jumlasidan.

Abstract: This article provides information about the ecological groups of algae, the distribution of species depending on the environment in which they grow. In particular, plankton, salt water, soils in different environments are among them.

Kalit so`zlar: Suvo`tlar, ekologik guruhlar, plankton, bentos, neyston, tuproq, sho`r suv, issiq suv, buloq, chuchuk suv, ko`k-yashil, diatom, oltin tusli.

Key words: Algae, ecological groups, plankton, benthos, neuston, soil, salt water, hot water, spring, fresh water, blue-green, diatom, golden hue.

Suvo`tlar yer kurrasi bo`ylab turli suv, quruqlik va tuproq biotoplarida keng tarqalgan. Bu organizmlarning quyidagi ekologiya jigatdan guruhlari ma`lum. Bular: plankton suvo`tlari, bentos suvo`tlari, quruqlik suvo`tlari, tuproq suvo`tlari, qaynoq buloqlar suvo`tlari, muz va qor suvo`tlari, sho`r suvlardagi suvo`tlar va boshqalar.

Plankton har xil chuqurlikda yashovchi suvo`tlar (fitoplankton) va mayda jonivorlar (zooplankton) dan iborat suv qatlami. Fitoplankton asosan erkin harakat qiladigan yoki harakat qilmaydigan suvo`tlardan tashkil topadi. Bular asosan bir hujayrali yoki kolonial suvo`tlar qatlamidan iborat. Ba`zan fitoplankton tarkibida bakteriyalar, zamburug`lar va aktinomozetlar ham bo`ladi. Fitoplankton tabiatda keng tarqalgan bo`lib, chuchuk, ariq, zovur, daryo, kanal, hovuz, ko`l, dengiz va okean suvlarida uchraydi. Harorati 70 C (seltsiy) ga yetadigan buloq suvlarida hamda tarkibida zaharli moddalar bo`lgan suvlarda tipik plankton mavjud bo`ladi. Daryo suvlari quyiladigan kichik suv havzalaridagi tipik planktonlar suv tubidagi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

mikroorganizmlar bilan aralashib ketadi. Chuqur suv havzalarida suvo`tlar faqat suvning quyosh nuri kirib boradigan qatlamida o`sadi. Suv havzalarining xiliga qarab, plankton suvo`tlar har xil chuqurlikda o`ishi mumkin. Masalan, chuchuk va dengiz havzalaridagi planktonlar yorug`likning kirib borishiga qarab, turlicha 100 m gacha chuqurlikda, ba`zi hollarda ular yanada chuqurroq bo`ladi. Chuchuk suv havzalardagi fitoplankton asosan diatom, yashil, ko`k-yashil, oltin tusli, pirofit va yevglonofit kabi suvo`tlardan tashkil topgan. Yashil suvo`tlardan ayniqsa, monad va kokkoid vakillari ko`proqni tashkil etadi. Bulardan eng ko`p tarqalganlari Chlamydomonas, Pandarina, Eudarina, Gonium, Volvox, Scenedesmus, Pediastrum, Ankistrodesmus, Kirchneriella, Chlorella va boshqalardir. Botqoq va botqoqlashgan suvlarda desmidiumlilardan Cosmarium, Closterium, Staurastrum, Suastrum, Micrasterias, Xanthidium, Desmidium, Hyalotheca larni uchratish mumkin. Ko`k – yashil suvo`tlardan Microcystis, Aphanizomenon, Gloetrichia ko`p tarqalgan. Shuningdek, diatom suvo`tlarning patsimon sinfidan Asterionella, Tadellaria, Fragaria va sentriksimonlar sinfidan Melosira uchraydi. Tipik planktonlarda diatom suvo`tlari ko`proq uchramaydi. Lekin ba`zan suv havzalarining tubidagi mikroorganizmlarning suv yuzasiga vaqtincha ko`tarilishi hisobiga ularning soni ancha ortadi. Sovuq suvli havzalarda uchraydigan planktonlar tarkibida juda ko`p miqdorda xrizomonadlar vakillaridan Synura, Dnabyron, Uroglena, Mallomonas, issiq suvli havzalarda yevglonofitlardan Euglena, Trechelemonas, Phacus, pirofitlardan Peredinium, Ceratium va boshqalalar uchraydi.

Suvni yuzasida qalqib hayot kechiradiganlarni epineyston, uni ostidagilari giponeyston deyiladi. Neyston organizmlar kichik suv havzalari (ko`lmak, hovuz kabi) hamda dengiz va okeanlarda ham mavjud. Ayrim hollarda bu organizmlar juda ko`p miqdorda ko`payib suv sathini qoplab ham oladi. Neystonda tillarang suvo`tlaridan Chromulina ayrim yashil suvo`tlari, masalan, Chamydom onda keng tarqalgan. Bentos (suv tagi) organizmlariga suv tagi va undagi turli narsalarga birikib yoki birikmay, shu sharoitga moslashgan organizmlar kiradi. Bentos suvo`tlar muayyan sharoitda o`shishga abiogen va biogen omillar ta`siri ostida bo`ladi. Bentos suvo`tlari o`shishi uchun fotosintezlovchi organizmlar kabi yorug`lik zarur.

Suv oqimining kuchi ayniqsa daryo, soy, kanal, irmoqlarda suvo`tlarni tarqalishi va rivojlanishiga katta ta`sir qiladi. Bunday sharoitli suv havzalarida bentosning reofil organizmlar guruhi shakllanadi. Suv oqimi va biogen moddalar yetarli darajada bo`lmasa bentos suv o`tlari yaxshi rivojlanmaydi. Biogen moddalarning

manbai bo 'lib suv oqimi va suv osti cho'kindilari hisoblanadi. Bentos suvo'tlarining rivojlanishiga ular bilan oziqlanadigan turli umurtqasiz hayvonlar va baliqlar ham ta'sir qiladi. Bentos suvo'tlari o'sish joyiga ko'ra epiut-qattiq joyda, epielit-yumshoq joyda, epifit-o'simliklar ustida o'sadigan guruhlariga bo'linadi. Perifiton-deb nomlanadigan organizmlar (suvo'tlar) guruhi ham bo'lib ular suv havzasida suzib yuradigan turli predmetlarda o'sadi. Suvo'tlar orasida haqiqiy bentos turlari bilan bir qatorda hayotini ma'lum vaqtini bentosda, boshqasini planktonda o'tkazadigan turlar ham kam emas. Ularni ko'pchiligida o'sish joyiga birikadigan moslamalar yo'q, ayrimlaridagina shilimshiq bog'lamlar yoki uzun o'siqlar bor.

Qaynoq buloqlardagi suvo'tlar 32-52°C da ayrim hollarda esa 90°C gacha haroratda o'sa oladi. Ko'pincha mineral tuzlar yoki organik moddalar ortiqcha bo'lgan, masalan, zavod va fabrikalarning issiq oqova suvlarida o'sadi. Bunday suv havzalarda odatda asosan ko'k-yashil suvo'tlar, kamroq diatom va ulardan ham kamroq yashil suvo'tlar o'sadi.

Qor va muzlikda o'sadigan yashil, ko'k-yashil va diatom suvo'tlar kriofillar deyiladi. Ayrim vaqtlarda ular juda ko'p miqdorda o'sib qor va muzni yashil, sariq, moviy, qizil, jigarrang, qo'ng'ir hatto qora tusda tovlanishiga ham sabab bo'ladi. Qorni zangori tusda bo'lishiga Rhabdonema nivelis, qizil ranga kirishiga esa Chlamydomonada, jigarranglikni Ancilonema hordenskiodii hosil qiladi. Bu suvo'tlar qor yoki muzning yuza qismida bo'lib, ular erish harorati 0°S atrofi vaqtida ommaviy ravishda ko'payib, qor yoki muzni u yoki bu tusga kirishiga sabab bo'ladi.

Sho'r suv havzalarining suvo'tlarini galobiontlar dcyilib, ular suvda erigan osh tuzining kontsentratsiyasi 285 g/l dan 347g/l gacha bulgan suv havzalarida tarqalgan. Suvning sho'rliigi bundan ortishi bilan suvo'tlarning miqdori kamayib boradi. O'ta sho'rlangan (gipertalin) suv havzalarida Dunaliella, Asteromonas, Pedimonas tarqalgan. Ayrim gipergalin suv havzalarining tagi ko'k-yashil suvo'tlari bilan qoplangan, ularni asosiy qismini Microcoleus, Aphanothece, Spirulina, Oscillatoria turkumlarining turlari tashkil qiladi. Suvning sho'rliigi kamaya borishi bilan boshqa turlarga mansub suvo'tlar ham paydo bo'la boshlaydi.

Suvo'tlar asosan suvda hayot kechirsada, undan tashqari turli tuman muhitlarda ham keng tarqalgan. Suv muhitidan tashqaridagilarni aerofil, edaofil va litofil guruhlariga bo'linadi. Aerofil suvo'tlarning o'sish muhiti fizik, kimyoviy jihatidan ta'sir etmaydigan toshlar, tog' qoyalari, daraxt po'stloqlari kabi qattiq substratlar hisoblandi. Ularni faqat atmosfera havosini namlanishi bilangina qanoatlanadigan hamda suv

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

bilan yuvilib turadigan joylarda o'sadigan guruhlarga bo'linadi. Aerofil suvo'tlar haroratni doimiy o'zgarib turishi ta'sirida bo'ladi. Kunduzi ular qiziydi, kechasi soviydi, qishda muzlaydi. Bu guruh suvo'tlari asosan Chlorophyta, Cyanophyta qisman, Bacillariophyta guruhlariga mansub bir hujayrali va ipsimon tuzulganlardan iborat. Tuproq yuzasi va uning qa'ri ham suvo't uchun o'sish muhiti bo'lib, unga ma'lum darajada ta'sir ko'rsata oladigan suvo'tlar guruhi edafofil deyiladi. Suvo'tlarning rivojlanishi uchun fototrof organizmlar kabi yorug'lik ham zarur. Shudgor qilingan tuproqda yorug'lik 1 sm gacha kirib boradi. Hayotiy xususiyatlarini saqlab qolgan suvo'tlarni shudgorlanmagan tupoqlarda 20 sm gacha, shudgorlanganlarida esa 2,7 m chuqurlikgacha uchratish mumkin. Suvo'tlar bu chuqurliklarda ko'pincha tinim holida bo'ladi. Tuproq suvo'tlariga xos harakterli xususiyat bo'lib ularning “efemerligi”-tinim holatidan faol holatga tez o'ta olishi va aksinchaligi. Tuproq haroratining keskin o'zgarishlariga ultrabinafsha va radioaktiv nurlanishlarga chiday oladilar. Bu bilan ularning keng tarqalganligi ifodalanadi.

Ohaktoshlarda o'sadigan suvo'tlar. Bu guruhga kiruvchi ohak toshlari ustiga birikib o'sadi va “parmolovchi” suvo't deb ataladi. Bunday suvo'tlar ko'pincha ko'k-yashil suvo'tlar orasida tarqalgan bo'lib, 20 ga yaqin turi bor. Bular asosan chuchuk suv va dengizlarda tarqalgan bo'lib, ohaktoshlar, marjon qoyalar ustiga birikib o'sadi. Ular o'zidan organik kislota ajratib, ohaktoshlarni eritadi va natijada toshning ustida ingichka kanalchalar hosil bo'ladi. Kanalchalarda o'rnatilgan suvo't o'zidan yangi kislota chiqarib, toshni yana ham chuqurroq teshadi va hosil bo'lgan chuqurchalarga o'rnatilib o'sadi.

Ba'zi suvo'tlar o'zidan kaltsiy karbonat ajratib, ohaktoshlar hosil qiladi. Ohakni ajratish miqdori har xil. Ba'zi turlar juda ham oz miqdorda ohak ajratsa, boshqalari ko'p miqdorda ohak chiqaradi va g'ilof (quticha) hosil qiladi: g'ilof ichida suvo'tlarning hujayrasi joylashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botanika. Tuban o`simliklar (Sharobiddin Tojiboyev, Nasibaxon Naraliyeva) ‘Namangan’ nashriyoti. 2016
2. Tuban o`simliklar. Universitet talabalari uchun darslik. (L.L. Velikanov va boshqalar) Toshkent. ‘O`qituvchi’ nashriyoti. 1995
3. Mikologiya, Algologiya (Sharofiddin Tojiboyev, Nasiba Qarshiboyeva) Jizzax. ‘Sangzor’ nashriyoti. 2014
4. Wikipedia.
5. Arxiv.uz
6. Prezi
7. Universal Publishings
8. Oefen.uz



Research Science and
Innovation House

ISLOMDA MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLAR MUHOFAZASI

Xamidov Mirzo-Ulug‘bek Dilshodbek o‘g‘li
Xalqaro islom akademiyasi Magistratura 1kurs islom huquqi

ANNOTATSIYA

Dunyoda insonning jismoniy mehnati, moddiy mol-mulklari bilan bir qatorda yana bir qimmatli narsasi aqliy mehnatidir. Kimdir jismoniy mehnati bilan, jismoniy kuch sarflash, ter to‘kib ishlashi orqali insonlarga manfaat keltiradi va o‘zi ham shundan manfaat oladi. Ya’ni mehnati evaziga haq oladi. Odatda insonlarning askari mana shu yo‘l bilan kun kechiradi. Yana bir toifa odamlar borki, ularning jismoniy mehnati emas balki aqliy mehnati qadrliroq. Bunday kishilar bor vaqtini aqliy mehnatga sarflashadi. Olimlar, ixtirochilar, yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, tadbirkorlar va hokazo. Ularning bu mehnatini ham qonuniy ravishda qadrlanishi, munosib baholanishini ta’minlash kerak. Shu o‘rinda mualliflik huquqi degan masala o‘rtaga chiqadi. Shu yo‘l bilan insonning aqliy mehnati samarasini uning o‘z mulki deb e’tiborga olsih va uni qonun bilan himoyalash lozim bo‘ladi. Chunki muallif bu ishi uchun jismoniy mehnatdan kam bo‘lmagan kuch-quvvat, vaqt sarflaydi. Bugungi kunda butun dunyoda mualliflik huquqining himoyasi qanunlar va xalqaro konvensiyalar asosida tartibga solingan. Butun dunyoda muallifning huquqi qonuniy tarzda himoya qilinadi va unga tajovuz qilishni jinoyat deb baholaydi. —

Kalit so‘zi: Mualliflik huquqi, mualliflik haqqi, aqly mehnat

Mualliflik huquqi — keng ma’noda — fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, foydalanish va ququqiy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi; fuqarolik huquqining bir bo‘limi. Tor ma’noda — asar muallifiga tegishli bo‘lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo‘yilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimini tashkil etadi. Mualliflik huquqi bo‘yicha munosabatlar har bir davlatga xos qonunlar va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi.¹

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Mualliflik_huquqi

Ushbu masalaga Islom shariatida qanday qaraladi?. Albatta islom shiati doimo insonning barcha huquqlarini himoya qilib kelgan. Islom shiati insonlarni o‘zgar molini botil (nohaq) yo‘l bilan yeyishdan qaytaradi va buni qattiq qoralaydi. Qur’oni Karimning “Baqara” surasi 188-oyatida shunday deyiladi:

وَلَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَكُمْ بَيْنَكُمْ بِالْبَاطِلِ

Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang...

Botil yo‘l bilan yeyish deganda birovning mulkiga har qanday nohaq tajovuz nazarda tutiladi. Xoh o‘g‘irlik yo‘li bilan bo‘lsin, xoh g‘irromlik yoki zulm bilan barchasi botil yo‘l hisoblanadi.

“Niso” surasining 29-oyatida esa bunday deyiladi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَكُمْ بَيْنَكُمْ بِالْبَاطِلِ إِلَّا أَنْ تَكُونَ
تِجَارَةً عَنْ تَرَاضٍ مِنْكُمْ وَلَا تَقْتُلُوا أَنْفُسَكُمْ إِنَّ اللَّهَ كَانَ بِكُمْ رَحِيمًا

Ey iymon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang. Magar o‘zaro rozilik ila tijorat bo‘lsa, mayli. O‘zingizni o‘zingiz o‘ldirmang. Albatta, alloh sizlarga o‘ta rahmlidir.

Keyingi 30-oyatda esa bunday yo‘lga yurgan kishining oqibati haqida bunday deyiladi:

وَمَنْ يَفْعَلْ ذَلِكَ عُدْوَانًا وَظُلْمًا فَسَوْفَ نُصَلِّيهِ نَارًا وَكَانَ ذَلِكَ
عَلَى اللَّهِ يَسِيرًا

Kim buni tajovuzkorlik va zulm ila qilsa, albatta, uni olovga kiritib kuydirurmiz. Bu esa Allohga osondir.

Yuqoridagi oyatlarning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Islom dini insonning molini qat’iy himoya qiladi va unga tajovuz qilganni esa og‘ir jazoga tortadi.

Muslmon ulamolari ma'naviy huquq, intellektual mulkni ham moddiy mulk bilan bir qatorda ekanini va uning egasi mulkdor sifatida e'tiborga olinishini va mualliflik huquqini sotish va undan moddiy foyda olishi joiz ekanini bir ovozdan ta'kidlaydilar. Bunga asos sifatida muallifning shunday intellectual mulk yaratish uchun aqliy jismoniy va moddiy hatti-harakatlar sarf qilinganini keltirishadi. Biror bir manfaat olib keluvchi narsa ustidan haq olish esa joizligi ma'lum.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rohmatallohi alayh ham mualliflik huquqi borasida kelgan savolga quyidagicha javob bergan:

Bismillahir Rohmanir Rohiym.

Bu savolga javob berishdan oldin shuni aytib o'tish kerakki, mualliflik haqqi, haqiqatan, dunyo bo'yicha tan olingan haqq. Muallifning haqqini poymol qilishga hech kimning haqqi yo'q, balki bu narsa barcha davlatlarning qonuni bo'yicha jazoga tortiladigan jinoyat hisoblanadi. Islom diynida bunga qanday nazar bilan qaraladi?

Javobni batafsil aytishdan oldin hozirgi kundagi ahvolimizga nazar solishimiz kerak. Ayniqsa, diynni mahkam tutishni da'vo qilayotgan, diyniy adabiyot va shunga o'xshagan narsalar bilan savdo qilayotgan jamoani, o'sha ishda ishtirok etadigan odamlarning holatini alohida ko'rish kerak bo'ladi. Chunki, bu sohada mualliflik haqqi nima ekanligini umuman e'tiborga olmaydigan odamlar 100 bo'lmasa ham 95 foizni tashkil qiladi. Ular: «Muallifning haqqi yo'q, kim qo'lga nima tushsa, shuni ko'paytirib sotsa, diyniga xizmat qilayotgan bo'ladi», degan da'voni qilishadi. O'zlarini taqvodor qilib ko'rsatishadi, namoz o'qib, ro'za tutayotganlik da'vosini qilishadi, Xudoning yo'lida xizmat qilayotganlik da'vosini qilishadi, lekin o'zlaridan ko'proq Allohning yo'lida xizmat qilayotgan, kitob yozayotgan, kechalari uxlamasdan ko'zining nurini to'kib, yillar davomida yig'ib-terib, yozib, kitob holiga keltirib, bozorga qo'ygan yoki sotib o'z mehnatining samarasini biroz ko'rmoqchi bo'lgan kishilarning haqqini vahshiylarcha poymol etishadi. Qo'lga tushgan kitobni iloji boricha o'g'rilik yo'li bilan, suratini olib, ko'paytirib, sotishga harak'at qilishadi. Muallif bechora o'zi chop qildirgan kitobini sota olmay o'tiraveradi, ular o'g'irlikdan bo'lganligi va o'zlariga arzon yoki bepul tushganligi uchun, tezroq pul qilish maqsadida, xohlagan narxida sotib, muallifning haqqini poymol qilishadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Shuningdek, ovoz tasmalari, kompyuter disketlari va boshqalar savdosida ham mana shu holni ko‘rish mumkin. Bularning hammasi juda ham noqulay bir holat, nihoyatda og‘ir musiybat hisoblanadi. Ana shu holat albatta musulmon ulamolarini ham tashvishga solgan va Makkai Mukarramadagi Islom Fiqhi akademiyasi mana shu masalani alohida ko‘rib chiqishga majbur bo‘lgan. Hozirgi kunimizning ko‘zga ko‘ringan katta ulamolari a‘zo bo‘lgan bu fiqh akademiyasida mualliflik haqqi to‘laligicha, batafsil ko‘rib chiqilganidan so‘ng, musulmon ummatiga, mo‘min-musulmonlarga qarata o‘zlarining qarorlarini chiqarib, mualliflarning mualliflik haqqlari to‘g‘risidagi bayonotni berganlar. Ana shu bayonotda quyida biz so‘zma-so‘z tarjima qiladigan ma‘nolar ifoda qilingan:

“Bismillahir Rohmanir Rohiym.

“Ba’zi paytlarda muallif o‘zining butun umrini bir foydali kitob ta’liyf qilishga sarflaydi. Va undan foyda ko‘rish uchun nashr qiladi. Shunda boshqa bir odam kelib, haligi kitobdan bir nusxani oladi-da, hozirgi zamonda chiqqan oson vositalar orqali yo chop qiladi, yo suratga oldirib u ham sota boshlaydi. Uning sotishi, albatta, muallifning yo‘lini to‘sadi, unga qarshi bir odamga aylantiradi, ana shuning oqibatida haligi odam hech qanday ta’liyfga aralashmasdan, zahmatini chekmasdan, birovning mehnati samarasini ko‘rishga o‘tadi. Ba’zi birovlar bu kitobni bepul tarqatishlari ham mumkin. Lekin, ana shu bepul tarqatishi bilan u o‘ziga shuhrat qozonadi, shuhrat qozonish yo‘lida esa muallif bechoraning charchagani, horigani, qilgan mehnati, hatti-harak’atining hammasini zoega chiqaradi. Mana shu fikrni ixtiro qiluvchilar haqida ham aytish mumkin.

Bunday narsalar bo‘laverganidan keyin ilmi, zakovatli, kitob ta’liyf qilishga, ixtiro qilishga qudrati yetadigan odamlarning himmatlari pasayadi. Chunki, ular o‘zlarining mehnatlari samarasini ko‘rmaydilar, boshqalar uning mehnatini qo‘lidan yulib, tortib oladilar va o‘zlarining foydasiga ishlatadilar, tijorat qiladilar, muallifning yo‘lini to‘sadilar. Holbuki, u “tijoratchilar” bu kitobning yoki ixtironing dunyoga kelishida hech narsa sarflaganlari yo‘q, buni xayollariga ham keltirmaganlar. Zamon o‘zgarishi bilan, vaziyatlar ham o‘zgardi, yangi-yangi narsalar chiqarildi, endilikda har

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

kim o‘zining qilgan mehnatining samarasini ko‘rishi kerak. Muallif yoki ixtirochi ham o‘zi ta’lif qilgan asari yoki ixtiro qilgan narsasining haqqdori bo‘lishi vojibdir. Bu haqq ana shu muallifning shar’iy mulki hisoblanadi, biror kishi unga tajovuz qilmasligi kerak, uning iznisiz ko‘chirmaslikga, chop qilmasligi, sotmasligi kerak. Ana shu narsalarning hammasi-kitob bo‘lsin, boshqa bo‘lsin, asosan, shariatga to‘g‘ri keladigan, zalolatga boshlamaydigan narsalar bo‘lishi sharti bilan, albatta. Shuningdek, o‘sha yozilgan narsani nashr qilgan noshir ham muallifning sherigi bo‘la olmaydi, u faqat muallif nimaga ahdlashgan bo‘lsa, shu ahdda haqqi xolos, boshqa narsaga haqqi yo‘q. Muallifning iznisiz noshir kitobning mazmuniga o‘zgartirish kiritishi mumkin emas yoki biron yerini boshqacha qilishga haqqi yo‘q. Mualliflik haqqi meros bo‘lib qoladi, ya’ni muallifning merosxo‘rlariga haqq ham meros bo‘lib qoladi. Ana shu narsalarning hammasi xalqaro shartnomalarda o‘z aksini topgan, mana shu narsalarning hammasini mo‘min-musulmonlar amalga oshirishlari kerak, shariatga xilof ishlarni qilmaslik lozim, bu narsalarning hammasini joyiga qo‘yish vojib hisoblanadi”.

Mana, mualliflik haqqi haqidagi Islom Fiqhi akademiyasi ulamolari chiqargan qaror. Bu qaror juda muhim bir hujjat hisoblanadi. Har bir mo‘min-musulmon kimsa muallifning haqqini, ixtirochining haqqini hurmat qilishi kerak. Muallifning haqqini poymol qilish xuddi bir odamning bir joyga to‘plab qo‘ygan mol-mulkini o‘g‘irlash bilan barobar bo‘ladi. Ana shuni o‘g‘irlab, olib chiqib sotib, pul qilgan odam qanchalik gunohkor bo‘lsa, muallifning iznisiz undan berkitib, kitobini chop qilib yoki boshqa asarini boshqa uslub bilan ko‘paytirib sotayotganlar birovning molini botil yo‘l bilan yeyayotgan va Qiyomat kunida qorinlariga olovni yeydigan shaxslardan bo‘ladi. Muallif iznisiz, o‘g‘irlikcha uning haqqini yulib olib, uning haqqini tortib olib savdo qilayotganlardan narsa sotib oladiganlar ham o‘ylab qo‘yishlari kerak. Chunki bizning shariatimizda o‘g‘irlangan, g‘asb qilib tortib olingan mollarni sotib olishga ruxsat yo‘q, ular harom bo‘ladi.

Shuning uchun, ana shunday o‘g‘rilardan, muttahamlardan birovning haqqini tortib olganlarning mahsulotini sotib olishdan ham hazar qilish kerak. Balki asl nusxani, halol, ter to‘kib, mehnat qilib, yillar davomida butun bilimini, aqlini, zakovatini, kuchini, qudratini sarflab asar yuzaga keltirgan insonning kitobini va boshqa mahsulotlarni sotib olib, o‘shalardan foydalanilsa, savob yo‘lida to‘g‘ri ish qilish baxtiga muyassar bo‘linadi, hamma narsa halol-pok, yaxshi bir suratda amalga oshgan bo‘ladi. Alloh subhanahu va taolo O‘zi barchalarimizga insof-tafviq bersin, jumladan,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

mualliflarning, haqqdorlarning haqqini poymol qilib, o‘zlariga oson mol, pul topish yo‘liga kirib olganlarga ham insof bersin, hammamizni Allohning shariatiga amal qilib, halol, pok rizq bilan rizqlanib yurishimizda Alloh taoloning O‘zi madadkor bo‘lsin. Vallohu a‘lam”²

Xulosa: Insoniyatning rivojlanishidagi eng asosiy omil bo‘lgan aqly mehnatni munosib baholash, uni qadriga yetish va uning bardavomligini ta‘minlash uchun mualliflik huquqini himoya qilish shartdir. Islom shariati ham bu masalani e‘tibordan chetda qoldirmagan. Islom shariatida kishining har qanday mehnati munosib baholanadi. Shu o‘rinda intellectual mulk ham islom shariati tomonidan to‘liq muhofaza qilingan va uning ortidan moddiy manfaat olsihning shar‘iy yo‘larini batafsil bayon qilib bergan ekan. Bu masalada butun insoniyat deyarli bir xil qarashda. Faqatgina b‘azi juz‘iy farqlar bo‘ishi mumkin, xolos. Mualliflik huqiga barcha jiddiy yondoshishi, o‘zganing mehnatini qadrlashi lozim. Shu yo‘l bilan aql, bilim egalarining faoliyati ta‘minlanadi. Shu yo‘l bilan taraqqiyotga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mualliflik_huquqi
2. <https://islom.uz/maqola/3>

Research Science and
Innovation House

² <https://islom.uz/maqola/3>

**O‘zbekistonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga
rioya qilishning ahamiyati**

**O‘zbekiston Respublikasi
bank moliya akademiyasi
magistranti Tursunova Yulduz**

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz xalqaro moliyaviy buxgalteriya standartlarini joriy etishning O‘zbekiston moliya sektoriga ahamiyati va ta'sirini ko‘rib chiqamiz. Biz ushbu jarayonning asosiy jihatlarini tahlil qilamiz va uning mamlakat moliyaviy faoliyatining turli jabhalariga ta'sirini ko‘rib chiqamiz.

Аннотация

В данной статье мы рассматриваем важность и влияние внедрения международных стандартов финансового учета на финансовый сектор Узбекистана. Мы анализируем основные аспекты этого процесса и рассматриваем его влияние на различные аспекты финансовой деятельности страны.

Annotation

In this article, we consider the importance and impact of the introduction of international financial accounting standards on the financial sector of Uzbekistan. We analyze the main aspects of this process and consider its impact on various aspects of the country's financial activity.

Kalit so‘zlar:

Xalqaro moliya standartlari, moliyaviy hisob, investisiyalarni jalb qilish, integratsiya, iqtisodiy rivojlanish.

Keywords:

International financial standards, financial accounting, investment attraction, integration, economic development.

Ключевые слова:

Международные финансовые стандарты, финансовый учет, привлечение инвестиций, интеграция, экономическое развитие.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Zamonaviy dunyoda moliyaviy hisob va hisobot sohasida standartlashtirish milliy iqtisodiyotlar moliyaviy tizimlarining shaffofligi, barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishga intilayotgan O'zbekiston moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu mavzuning mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun ahamiyatini yoritib, bizning maqolamiz O'zbekiston moliya tizimini yanada takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqish va asosiy masalalarni muhokama qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli “Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga asosan, 2015-2018 yillarda barcha aktsiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazishi va aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi 2015 yilning 1 iyuliga qadar aktsiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish jadvalini tasdiqlanishi lozimligi belgilangan. Bundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrda PQ-2454-sonli “Aktsiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qaroriga asosan, aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitaliga 15 foizdan kam bo'lmagan miqdorda xorijiy investorlarning ulushi jalb qilinishi lozimligi belgilangan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilishiga to'g'ri keladi. Chunki, undan xorijiy investorlar aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini to'g'ridan to'g'ri tushunishiga va ishonch hosil qilish lozimligiga erishadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXSlar) – bu Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha Kengashi (MHXSK) tomonidan chiqarilgan standartlar va sharhlardir. Ular quyidagilarni qamrab oladi:

- (a) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari;
- (b) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (1,20).

O'zbekiston iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga intilayotgan davlat sifatida moliya sohasida buxgalteriya hisobi va hisoboti mexanizmlarini standartlashtirish va takomillashtirish jadal suratlarda o'smoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda

moliyaviy hisob standartlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. Keling, nima uchun bu muhimligini ko‘rib chiqaylik:

✓ **Shaffoflik va ishonchni oshirish:** Xalqaro standartlarni joriy etish kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarining shaffofligini yaxshilaydi, bu esa investorlar va manfaatdor tomonlarning milliy va xalqaro darajada ishonchini oshirishga yordam beradi.

✓ **Hisobotning taqqoslanuvchanligi:** standartlashtirilgan buxgalteriya hisobi va hisobot berish usullari turli kompaniyalar va tarmoqlarning moliyaviy ma'lumotlarini mahalliy va xalqaro miqyosda solishtirishni osonlashtiradi. Bu investitsiyalar uchun qulay muhit yaratadi va kapitalning kirib kelishiga yordam beradi.

✓ **Biznes samaradorligini oshirish:** Xalqaro standartlar yanada samarali va shaffof buxgalteriya amaliyotini ta'minlaydi, bu esa kompaniyalarga to‘g‘ri va ishonchli moliyaviy ma'lumotlar asosida asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

✓ **Jahon iqtisodiyotiga integratsiya:** moliyaviy hisob standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qiladi, savdo va sarmoyani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

✓ **Barqaror iqtisodiy o‘shishga ko‘maklashish:** Buxgalteriya hisobi va hisobotning samarali va shaffof mexanizmlari barqaror va barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim elementi hisoblanadi, chunki ular moliyaviy risklarni minimallashtirish va ichki va tashqi bozorlarga ishonchni oshirishga yordam beradi.

✓ **Investitsiyalarni jalb qilish:** Xalqaro moliyaviy buxgalteriya standartlari yanada shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy hisobot uchun sharoit yaratadi, bu esa mamlakatni xorijiy investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Bu moliya sektori va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan kapitalni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etish O‘zbekiston moliya tizimini modernizatsiya qilishning muhim bosqichidir. Moliyaviy hisobotning taqqoslanuvchanligi, shaffofligi va ishonchligini ta’minlash sarmoyalarni jalb etish, ishbilarmonlik muhitining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning asosiy elementiga aylanmoqda.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy etish bir qator afzalliklarni keltirib chiqaradi, ammo yangi talablarga moslashish va O‘zbekistonning milliy xususiyatlari va bozor sharoitlariga mos kelishini ta’minlash kabi muammolarga duch kelmoqda. Biroq hukumat, ishbilarmon doiralar va mamlakat professional jamoalarining sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston bu to‘siqlarni yengib o‘tishda davom etmoqda va moliya sektorini modernizatsiya qilish va rivojlantirish yo‘lida olg‘a intilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdurahmonov F.B. (2019). Jahon buxgalteriya standartlari: O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditning rivojlanishiga ta'siri. “O‘zbekiston Milliy universiteti axborotnomasi”, 15-22.
2. Juraev Sh.N. (2020). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari: O‘zbekistonda joriy etish va moslashtirish istiqbollari. «Moliya va kredit», 4(884), 52-59.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2023). O‘zbekiston moliya sektorining 2022-yilgi holati to‘g‘risidagi yillik hisobot. Toshkent: “O‘zmoliya” nashriyoti
4. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari fondi (IFRS). (2022). "UFRS diqqat markazida - UFRS haqida tez-tez beriladigan savollar".
5. International Financial Reporting Standards Foundation (IFRS). (2022). "IFRS in Focus — Часто задаваемые вопросы о МСФО".
6. International Accounting Standards Board (IASB). (2022). "Conceptual Framework for Financial Reporting".

**Research Science and
Innovation House**

O‘zbek tili tarixiy matnlari lingvopoetikasi tahlilida “Lahjatu-l-lug‘ot”ning o‘rni

F.f.f.d. Rajabova Umida

UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

“Lahjatu-l-lug‘ot” asari o‘zining keng qamrovliligi, faktik materiallarga boyligi bilan o‘zbek mumtoz matnlari lingvopoetikasi tahlilida ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, unda Sharq falsafasining murakkab atamalari, kamdan kam o‘quvchilar anglaydigan istilohlarga atroflicha ta’rif berilgani fikrimizning isbotidir.

“Lahjatu-l-lug‘ot” asari materiallari o‘zbek mumtoz matnlarida uchraydigan sinonimlar, aniqrog‘i, sinonim so‘zlar o‘rtasida muayyan ma’no farqlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Buni “Lahjatu-l-lug‘ot”dagi *at* (ot) maqolasi va o‘zbek mumtoz matnlaridagi *ot* tushunchasini ifodalovchi so‘zlar qiyosi orqali ko‘rishimiz mumkin.

“Lahjatu-l-lug‘ot”dagi *at* lug‘at maqolasi quyidagicha: (qisqartirilgan holda mazmuni berilmoqda) “*at... bərtək* yo‘rg‘a otdir; *bādrənk* tez va chopqir otdir; *bārə* yaxshi otdir; *bārəgi* yaxshi ot va forsiyda *pāsebük* – yuguruk ot; *pâyâ* –yo‘rg‘a ot; *təkavər* – yo‘rg‘a ot; *təvsən* – sarkash ot; *palâni* – tengi kam topiladigan, noyob ot; *tik* – ot; *cərmə* – rangi bo‘z ot; *çâlig* – kamyob ot”. Shu tariqa *çahrî*, *zərdpur*, *səbzink*, *şûlək kahar*, *kümşje*, *nezîc*, *həykər*, *həmraf*, *yəkrân* kabi *at* leksemasining ma’nodosh va uyadoshlari keltirilgan.

Lug‘at maqolada muallif o‘zining otlar borasida ancha hayotiy tajribaga ega ekanligini ham namoyon qiladi. Maqola so‘ngida, jumladan, “Arap kavlince atın âlâsı oldur ki başı kuru ola, kalem kulaklı ola, burun delikleri büyük ola, boynu uzun ola, yani dal boyunlu ola karnı ziyade geniş ola ceyran güzeli olup yavuz bakışlı ola ve yürüdükte iki adımı beyni altı zira’ miktan ola, ve soyu iki taraftan malôm ve mazbut ola. Turkmen kavlince atın âlâsı oldur ki onda evveli yedi nesne mevcut ola. Yassı ola, yancıklı ola, ya leylî ola, yepegen ola, yedegen ola, yelegen ola, yaşagan olup çul her yanına değe ve bazı hayal kavlince atın âlâsı çekiç başlı ola, tepeden kulaklı ola, kalkan göğüslü ola, dibek kannlı ola, dal sağnı ola, elma güzeli ola, okuz bilekli ola, katır

tırnaklı ola, ardı onu ortası çok satanı açık ola şehirlerde ve alaylar olan mahallerde kibara yarar atın *âlâsı* oldur ki öküz başlı sazan enseli ve çatal sağnılı yere yakın yassı sürçmez kakmaz usti çok gögsü çok eskini çok cebe yorgalı ağır busât kaldırın siniri tamam gömüklü ola. At bir mübarek mahlûktur havâss-i kesîresi vardır. Evvelâ atın tabiatı har ve yâbistir. Riyâhı tahlil eder. Eğer at masumların koltuklarına ve kasıklarına terini ve ferc ve zekerine sürseler o mahallerde asla kıl bitmeye. Eğer o ter ile ok temreni ve o misilli demirlere su verseler semiyet peyda olup o alet ile mecruh olan elbette helâk ola” deb yozadi.

Ayrim tadqiqotchilar *ot* so‘zini turk-mo‘g‘ul parallellaridan biri sifatida qayd etadilar¹. A.M.Shcherbak esa, aksincha, bu so‘zni turk va mo‘g‘ul tillari o‘rtasida hech qanday aloqasi bo‘lmagan so‘zlar sirasida qayd etadi².

Qaysi aduv uzraki, yetkurdi *ot*,

Oni piyoda etibon qildi mot. (RD, 256^a)

Ko‘rinib turibdiki, parchada *ot* so‘zining ham zoonim, ham shaxmat atamasi ma‘nosi orqali iyhom san‘ati yuzaga kelgan. *Piyoda* so‘ziga ham urfiy, ham istilohiy ma‘no berish hamda *mot* so‘zining istilohiy va qilmoq yordamchi fe‘li bilan birikib anglatgan frazeologik ma‘nosi bunga imkon bergan. Baytdagi *aduv*, *piyoda*, *mot qilmoq* so‘zlarining mavjud ma‘no tovlanishlarini e‘tiborga olib, aytish mumkinki, *ot yetkurmak* fe‘li orqali uchinchi ma‘no – “nomini baland qilmoq, shukuhidan larzaga solmoq” mazmuni ham nazarda tutilgan. Bu holda baytda zulujuh³ yuzaga kelgani ayon bo‘ladi. Boshqa misollarga murojaat qilaylik: “ot va tevalarin serob qilib...” (RD, 269^b). Bu kabi misollar Ogahiy tarixiy asarlarining nazmiy qismlari nasriy qismlarga nisbatan lingvoestetik jihatdan ustunligini ko‘rsatadi. Bu, albatta, tabiiy holdir. Ogahiyda otning maxsus bir turi *to pchoq ot* birikmasi orqali ham ifodalangan: “...*to pchoq ot* va zarrin liboslar in‘omi bila sarafrozliq etkurdi. (RD, 272^b)

¹ Нуриева А.Х. Татарско-монгольские лексические параллели и определение монголизмов // Тюркское языкознание. – Ташкент: Фан, 1985. – С.379.

² Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Издательство Академии наук, 1987. – С.83.

³ Фахриддин Али Сафий. Латофатнома (Латойиф ут-тавойиф). Форсчадан Хожа Сотимхон Хожа Инъом Мунаввар таржимаси. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.7.

Tavsan توسن so‘zi “Navoiy asarlari lug‘ati”da “sho‘x ot, o‘ynoqi ot, to‘pichoq” tarzida izohlanib, forscha so‘z sifatida berilgan⁴. L.Budagov ham ushbu so‘zni turkiy tillar uchun forsiy o‘zlashmalardan biri hisoblagan⁵. M.Mu’in mazkur so‘zning “Devonu lug‘ot it-turk”dan joy olganini qayd etar ekan, uning fors tilida qadimdan ishlatilib kelinayotganini “Lug‘ati furs”dagi Minjik Termiziy qalamiga mansub bir bayt orqali ko‘rsatadi va uning boshqa eroniy tillardagi shakli keltirilmagani o‘quvchiga forsiy so‘z bo‘lmasligi mumkinligi xususida xulosa chiqarishi uchun asos bo‘ladi. Fors tilida shu asosda *tavsani* توسنى (eski o‘zbek tilida *tavsanliq*) – “sarkashlik qilish, bo‘ysunmaslik” so‘zi yasalgan. M.Mu’in bu so‘zga “Lug‘ati furs”dan joy olgan Og‘ochiy qalamiga mansub quyidagi baytni misol keltiradi:

Tavsaniy kardam nadonistam hame

K-az kashidan saxttar gardad kamon⁶.

“Devon”da *tavsan tusan* تُسَن shaklida “toy” deb izohlangan. S.Mutallibov “bu so‘z Navoiy asarlarida *tavsan* tarzida sho‘x, o‘ynoqi ot ma’nolarida uchraydi” deb qayd etadi⁷. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “tavsan”ning ma’nolari misollar orqali izohlangan⁸.

Asb so‘zi eroniy tillar uchun umumiy lug‘aviy birliklardan sanalib, uning turli eroniy tillardagi shakli bir-biriga yaqin⁹. Ogahiyda ot so‘zining ma’nodoshidan tashqari shaxmat atamasi sifatida ham ishlatilgan:

Summi *asb* etib tog‘ni gard-gard,

Hamul nard etib kun yuzin lojuvard. (RD, 259^b)

Research Science and
Innovation House

⁴ Иброҳимов С., Шамсиев П. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 584.

⁵ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том 2. – СПб. – С.394.

⁶ ۹۴۵ ص ۲. جلد ۱۳۸۶. امير كبير. تهران. با اهتمام دكتور محمد معين. تهران. قاطع. برهان قاطع. ب. ۵۳۴.

⁷ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1960. – Б.382.

⁸ Маҳмуд Кошғарий. DLT. 3-jild.

⁹ Эдельман Д.И. Еще раз об этапах филиации арийской языковой общность // Вопросы языкознания. – №3. – 1992. – С.49.

Yilqi soʻzi. Bu soʻz “hayvon” maʼnosida “Qudagʻu bilig”da bir necha bor ishlatilgan¹⁰. Ogahiy tarixiy asarlari tilida *yilqi* shaklidagi soʻz ikki xil maʼno beradi: 1. Yillik, yilga oid: “...*har yilqi* (har yilgi) qarori voqeʻidin ziyoda inʻom qilib, ahli sipohni xurram va shodkom qildi”. (RD, 309^a) 2. Ot. “...*yilqi* yili sana ming ikki yuz ellikda...” (RD, 276^a). Muchal hisobidagi ot yili Ogahiy tarixiy asarlarida, asosan, *yilqi yili* shaklida ishlatilgan: “Hamul yil, yaʻni *yilqi yili*... gʻazot savobi tahsili iroda qilib,..” (RD, 286^b); “*yilqi yili* rabialavval oyining oʻn segizida dushanba kunikum, asʻadi soot va arshadi avqot erdi”. (JVS, 11^a) Demak, Ogahiy davrida xalqona ifoda shunday boʻlgan. Xorazmlik keksalar yaqingacha “ot yili”ni “yilqi yili” deyishlari sababi shu bilan oydinlashadi.

Alisher Navoiy asarlari tilida bu ikki soʻz alohida shakllarga ega, yaʻni “yilqi” (hayvon) *ilqi* ايلقى; “yilqi” (yillik, yilgi) esa *ilgʻi* ايلغى tarzida ishlatilgan¹¹. Ogahiy tarixiy asarlarida sintaktik omonimlarga misol boʻla oladigan badiiy barkamol oʻrinlar aynan *yilqi* soʻzi shakldoshligi bilan bogʻliq. Ularning tahlili, bir tomondan, eski oʻzbek tilidagi lugʻaviy omonimlar tabiatini oʻrganishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, Ogahiyning shakldosh soʻzlardan foydalanish bobidagi poetik mahoratidan zavqlantiradi. Masalan, “Jomeʻ ul-voqeʻoti sultoniyy”dan joy olgan masnaviylarning birida shunday satrlar bor:

Birov oldi komin surib *yiqisin*,

Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin*. (JVS, 47^a)

Baytda qoʻllanilgan *yilqisin* soʻzining birinchisi “yilqisini”, “ot-ulovini”; ikkinchi va uchinchi qoʻllanishida “yilgisini”, “yilligini” tarzida tushunish mumkin. Bunda baytning umumiy mazmuni “birovlar maqsadiga erishib (gʻorat qilinganlar)ning ot-ulovini oldi, nafaqat bir ot-ulovini, balki ming ot-ulovini oldi” tarzida namoyon boʻladi. Endi aynan shu baytdan oʻzgacha mazmuni anglashimiz ham mumkin, yaʻni bunda bayt mazmuni “birovlar maqsadiga etgan holda (gʻorat qilinganlar)ning yilqisini oldi. Ular nafaqat bir yilgi, balki ming yillik orzulariga erishdi” koʻrinishini oladi. Asarda soʻz ketayotgan voqealar bayoni ham, baytning

¹⁰ Kutadgu bilig. III Indeks. Indeksi neʻre hazirlayanlar: Kemal Eraslan, Osman F.Sertkaya, Nuri Yuce. Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları:47. Seri IV – A.12. Istanbul, 1979. – S.539.

¹¹Хасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.109.

umumiy ruh va mazmuni ham, muhimi, eski o‘zbek tilining grammatik qurilishi ham bunga imkon beradi. Shuning uchun ham badiiy barkamol satrlar nazmda bo‘lsin, nasrda bo‘lsin, grammatik qoidalarga to‘la rioya qilingin holatdagina yuzaga keladi. Bu kabi baytlar Ogahiy Alisher Navoiyga badiiy mahorat bobida to‘la ergashganligini ko‘rsatib beruvchi faktik material hamdir. Qolaversa, baytda Ogahiy eski o‘zbek tilining leksik va sintaktik imkoniyatlarini namoyon qila olgan. Umuman olganda, tilning qator sathlardagi imkoniyatlari uning sintaktik qurilishida namoyon bo‘lishi ma’lum. Qizig‘i shundaki, *yilqi* (chorva) va *yilqi* (yilgi, yillik) so‘zlarining shakldoshligidan foydalanib, tajnis hosil qilish “Qutadg‘u bilik”da ham uchraydi:

Tili yalg‘an erning jafa qilqi ul,

Jafa kimda ersa o‘shul *yilqi* ul.

Kishi yalg‘anindan tilama vafa,

Bu bir so‘z sinamish o‘kush *yilqi* ul.

Ogahiy “Qutadg‘u bilik” bilan tanish bo‘lmagani aniq. Bunday faktlar esa buyuk iste’dodlar va maslakdoshlar g‘oyibona bir-birlari bilan hamfikir bo‘lishidan darak beradi.

Kumayt so‘zi. “Chahorshanba kuni Yog‘lito‘pa mavzeidin davlat *kumaytig‘a* rukub qilib, ... (RD, 265^b) Bu so‘z Xorazmshoh Otsiz qalamiga mansub quyidagi qit‘ada ham ishlatilgan:

اگر باد پایست یکران شاه

کمیت مرا هم پای لنگ نیست¹²

(Tarjimasi: “Agar shoh (Sulton Sanjar)ning yakroni (oti) shamoldek uchqur bo‘lsa ham, bizning *kumayt* (ot) oyog‘i ham oqsoq emas”). Shu o‘rinda Zabihullo Safo *kumayt* so‘ziga “qizil rangli ot” deb izoh bergan.

Kumayt so‘zi L.Budagov lug‘ati¹³da ham arabcha so‘z sifatida yuqorida qayd etilgan ma’nosida berilgan. Bu so‘z “Navoiy asarlari lug‘ati”da “1. To‘riq, chopqir ot.

¹² ۳۵ ذبیح الله صفا. تاریخ ادبیات در ایران. جلد دوم. چاپخانه ر امین. ۱۳۷۳. ص ۱۳۷.

¹³ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том 2. – СПб. – С.138.

